

## SHAVKAT RAHMON SHE'RIYATI

*Ochilova Sarvinoz Husan qizi,  
ToshDO‘TAU, O‘FF,  
Matnshunoslik va adabiy manbashunoslik  
yo‘nalishi 3-bosqich talabasi.*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada iste’dodli shoir Shavkat Rahmon hayoti va uning she’rlari mavzu ko‘lami haqida fikr yuritildi. Shoirning “O‘rmon” hamda “Qaytar dunyo” she’rlari tahlil qilindi.

**Kalit so‘zlar:** *Shavkat Rahmon, “O‘rmon”, “Qaytar dunyo”.*

**Абстрактный.** В данной статье рассматривается жизнь талантливого поэта Шавката Рахмана и масштаб его стихов. Проанализированы стихотворения поэта “Лес” и “Хайтар Дуня”.

**Ключевые слова:** *Шавкат Рахман, “Лес”, “Возвращение мира”.*

**Abstract.** This article discusses the life of the talented poet Shavkat Rahman and the scope of his poems. The poet's poems “Forest” and “Khaytar Dunya” were analyzed.

**Keywords:** *Shavkat Rahman, “Forest”, “Returning World”.*

Iste’dodli shoir Shavkat Rahmon 1950-yil 12-sentyabrda O‘sh viloyatining Qorasuv tumanida xizmatchi oilasida tug‘ilgan. Shoir 1966-yilda o‘rta maktabni tamomlaydi va shundan qurilishlarda, viloyat bosmaxonasida hamda gazetasida ishlaydi. U Moskvadagi M.Gorkiy nomidagi Adabiyot institutiga o‘qishga kiradi va u yerni 1973-yilda muvaffaqiyatli tamomlaydi. U o‘qishdan keyin Toshkentga ko‘chib kelib, G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashriyotida muharrir va bo‘lim boshlig‘i, O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasida mas‘ul xodim bo‘lib ishlaydi. U shoir sifatida o‘zining takrorlanmas ovozi bilan tengdoshlaridan ajralib turardi. Shavkat Rahmon hech narsadan cho‘chimasdi. Hayotni qanday ko‘rsa, shunday ta’riflar edi. U ishni ijoddan, ijodni ishdan alohida masofalarda saqlardi, ya’ni agar ish jarayonida bo‘lsa ijod qilmasdi. Ta’til vaqtlarida esa tinmay ijod qilar, bu vaqtda uni boshqa hech bir ish ijod dengizidan olib chiqa olmas edi. Shoirning dastlabki she’rlari O‘sh viloyati gazetalarida bosiladi. Birinchi she’riy to‘plami “Rangli lahzalar” (1978). Shoirning “Yurak qirralari” (1981), “Ochiq kunlar” (1983), “Gullayotgan tosh” (1984), “Uyg‘oq tog‘lar” (1986), “Hulvo” (1988) kabi bir qator she’riy to‘plamlari bosilib chiqadi.

Shoirning o‘z qo‘li bilan tayyorlagan, ammo vafotidan keyin nashr etilgan “Saylanma” to‘plami (1997)ni ko‘zdan kechirilsa, butun ijodi davomida yaratilgan sara asarlari qatorida xastalik damlarida bitilgan she’rlariga ham duch kelish mumkin.

Shavkat Rahmon tarjimon sifatida taniqli ispan shoiri Lorkaning go‘zal she‘rlarini rus va ispan tillaridan tarjima qilib, ikki marta nashr ettiradi (1979—1989) va o‘zbek o‘quvchisining ma‘naviy dunyosini boyitishga hissasini qo‘shgan.

Shoir she‘rlari mazmuniga e‘tibor qaratilsa, har bir so‘z zamirida chuqur ma‘no yashiringaniga guvoh bo‘lish mumkin. Masalan, “O‘rmon” deb nomlangan she‘rida shu qadar ajoyib o‘xshatishdan foydalanadiki, bir o‘qishda insooni o‘yga toldirib, fikrlashga majbur qiladi.

#### O‘RMONDA

*Qalin shoxlar aro yaltirab kun nurlari oqayotgan dam, yelkasida qo‘shog‘iz miltiq - kirib keldi o‘rmonga odam...*

*Afsonaviy, zangori diyor, bag‘ri to‘la joduli sukun. Shoxlar aro tobora ko‘proq nurlarini oqizardi kun.*

*Chor-atrofnı kuzatar odam, har sadoni poylar ataylab, daraxtlarnı panalar, birdan maysalarnı bosar avaylab...*

*Uyqudagi o‘rmon to‘satdan ko‘rmay qo‘yar ko‘hna tushlarnı va qattiqroq bag‘riga bosar sayrayotgan mitti qushlarnı.*

*Jimlik cho‘kar oraga bir zum, oh, bu kutish lahzasi yomon! Varanglagan o‘qdan ayiqday bo‘kirvorar bahaybat o‘rmon.*

*...Ona bo‘ri ingrab qulaydi, ko‘zlari - lim qotgan jolasi. Shoshilmasdan miltiqli odam qopga solar bo‘ri bolasin.*

*Chor atrofga qaramas endi, maysalarnı bosar xotirjam. Titroq bosgan o‘rmon ichida uzoq ingrar yarador odam...*

*G‘arq qiladi qalin shoxlarnı kunning qonga o‘xshagan nuri, yelkasida qo‘shog‘iz miltiq, chiqib ketar o‘rmondan bo‘ri...*

1980

Yuqoridagi she‘rda shoir o‘rmonda sodir bo‘lgan ayanchli hodisani tasvirleydi. Tabiatning go‘zal tasviridan, ya‘ni “Afsonaviy, zangori diyor, bag‘ri to‘la joduli sukun” deyilishidan kuz fasli ekanligini anglash mumkin. “Qalin shoxlar aro yaltirab kun nurlari oqayotgan dam” misralari esa kun botmaganligini bildiradi. Ayni shu vaqtda o‘rmonga ovchi kirib keladi. U hamma yoqqa e‘tibor bilan qaraydi. Barcha tovushlarnı jon qulog‘i bilan tinglaydi. Kun botgani sari o‘rmondagi qushlar ovozi ham sokinlashadi. Oraga jimlik kiradi. Birdan o‘q ovozi eshitiladi va ona bo‘ri yiqiladi. Bu o‘q uning hayotiga yakun yasash arafasida. Ovchi esa yerda yotgan ona bo‘ri yonidagi bo‘ri bolasini shoshilmasdan qopga soladi. Boshida hamma joyga e‘tibor bilan kirgan bu ovchi eni hech narsaga parvo qilmay, maysalarnı bosib o‘rmondan chıqa boshlaydi. Shoir esa bu jarayonni quyidagi mantiqli, go‘zal parcha orqali o‘quvchıga tushuntirmoqchi bo‘ladi:

*Chor atrofga qaramas endi, maysalarnı bosar xotirjam. Titroq bosgan o‘rmon ichida uzoq ingrar yarador odam...*

*G'arq qiladi qalin shoxlarni kunning qonga o'xshagan nuri, yelkasida qo'shog'iz miltiq, chiqib ketar o'rmondan bo'ri...*

Endi ingrab yotgan bo'rini odam deb, ovchini esa bo'ri deb ataydi shoir. Axir shu qadar yaxshilik qilgan ovchini odam deb bo'larmidi, albatta, yo'q. Shu sabab Shavkat Rahmon uni "bo'ri" deya tilga oladi. Ammo yerda jon talashib yotgan bo'ri obrazini odam deya ta'riflaydi. Buning sababi esa u ona bo'ri edi. Ona bo'ri o'z farzandi uchun jon berdi. Insonlarga xos bo'lgan mehr unda bor. Ovchining bunday razil ishi oldida ikkisining maqomini o'zgartirish o'rinli edi. Shu boisdan ham shoir muqaddimadagi obrazlarni she'r yakunida teskari qilib ta'riflaydi. Bu ham uning kuchli matiq sohibi ekanligini ko'rsatadi.

### QAYTAR DUNYO

*Essiz, shundoq umr, uqib yetmabsiz,  
Azaldan nodonga dunyo torligin,  
Loaqal keksani hurmat qil degan  
Oddiy bir maqolning borligin.  
Kecha itlik qilib, donoligidan  
Sizdayin nodonga pastdan qaragan  
Nuroni odamni abgor qildingiz,  
Qildingiz nodonga xos bir harakat.  
Endi xavfsiraysiz orqaga qarab,  
Ne bo'ldi, boshdan yo humo uchdimi?  
Yursa, yuribdi-da izlaringizdan  
Sanoqsiz bolalar tugib mushtini.*

Shavkat Rahmon qalamiga mansub "Qaytar dunyo" she'ri zamonaning har qaysi vakiliga nisbatan o'rnak bo'la oladi. Ushbu she'r kishilarga tanbeh beradi, insonlarni amallari hosilasining qanday bo'lishidan ogohlantiradi. She'rdan anglash mumkinki, bu yerda nuroni kishiga nisbatan behurmatlik qilgan shaxsga ishora bor. U o'zini dono sanab, nodonlik qilgan. Kexsa odamni uyatli ahvolda qoldirgan. Mana endi u ham ulug' yoshga yetdi. Bugun ortidan yosh bolalar unga qo'pol muomala qilishdi. U esa nega bunday bo'lganligini o'ylayapti. Xayolidan humo qushi uni tark etgandek, endi uni avvalgidek hurmat qilishmayotgani o'tayapti. Shoir esa unga bu qaytar dunyo ekanligini eslatadi.

Darhaqiqat, biz bu hayotda qanday harakat qilsak, harakatlarimiz samarasi vaqti kelib o'zini ko'rsatadi. Atrofdagilar biz uchun ko'zgu kabitdir. Ularga qarab qanaqa harakat qilsak, o'zimizda ham shu hol kuzatiladi. Hayotimizda qanday yaxshiliklar bo'layotgan bo'lsa, bu yaxshiligimizdan. Agar biror noxush voqea bo'lsa, demak, qachondir biz bunga sabab bo'ladigan ish qilganmiz. Shunday ekan, qilayotgan har bir ishimizga e'tiborli bo'lishimiz darkor. Zero, har ishning o'z javobi bor!



**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. <https://arboblar.uz/uz/people/shavkat-rakhmon>
2. [t.me/shavkat\\_rahmon](https://t.me/shavkat_rahmon)

